



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “16” fevral

01-13910 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
7-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«31» yanvar 2024 yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti hisoboti.

Ma‘ruzachi – Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani Xamraev Abror Asrorovich.

2. Akademiyaning Simulyatsion markazi hisoboti.

Ma‘ruzachi – Klinik modellashtirish kafedrasi mudiri Parpiboeva Dinara Ayupovna.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi “Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-38-qarori bo‘yicha rektor v.v.b Sh.A.Boymurodov so‘zga chiqdi va qarorni bajarish yuzasidan Akademiya oldida turgan vazifalar to‘g‘risida ma’lumot berdi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti hisoboti” mavzusi bo‘yicha pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani Xamrayev Abror Asrorovichning ma’lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1.Stomatologiya ta’lim yo‘nalishlarining, jumladan “Terapevtik stomatologiya kafedrasini” tashkil qilinishi, moddiy-texnik bazasini yaratilishi va kuchaytirilishi hamda mutaxassislar bilan ta’minlanishi masalari, shuningdek, stomatologik fantom xonalarini tashkil qilinishi va kerakli jihozlar bilan ta’minlanishi va xarid qilinishi bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev.

Muddat: 2023 – 2024 o‘quv yili davomida.

1.2. Akademiya ochilgan yangi ta’lim yo‘nalishlarining (Stomatologiya, Xalq tabobati, Pediatriya, Surdotarjimonlik) o‘quv jarayoni 3 tilda (o‘zbek, rus va ingliz), shu jumladan elektron shaklida, zamonaviy adabiyotlar bilan to‘liq boyitilishi, yangi adabiyotlar yaratilishi bo‘yicha buyurtmalar shakllantirilishi, xarid qilinishi hamda ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I.Dustmuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024 - yil fevral - mart.

1.3.Akademiya ochilgan yangi ta’lim yo‘nalishlari (Stomatologiya, Xalq tabobati, Surdotarjimonlik) uchun kadrlar tayyorlash maqsadida kasbga yo‘naltirilgan targ‘ibot va saralash ishlari olib borilishi ta’minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.4.Stomatologiya, Xalq tabobati, Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha yangi kafedralarni tashkil qilinishi, ularni jihozlash, asbob-uskunalarni xarid qilinishi va klinik bazalarini belgilanishi bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamraev.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.5.Xalq tabobati yo'nalishi bo'yicha diplomdan keyingi ta'limni tashkillashtirilishi va Xitoy xalq Respublikasining O'rumchi shahridagi Xinjon universiteti bilan qo'shma magistratura dasturini yaratilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamraev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.6.Mahsus pedagogika: surdotarjimonlik ta'lim yunalishi bo'yicha mutaxasislarni jalb etilishi, o'quv adabiyotlarini xarid qilinishi va yaratilishi, mahsus auditoriyalarni tashkil etilishi va meyoriy xujjatlarni shakllantirilishi bo'yicha ijrochi va muddati aniq belgilangan holda bajarilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamraev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.7.Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralarining bakalavriatura va magistratura yo'nalishlaridagi ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.8.Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning o'quv-ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turakulov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.9.Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti kafedralari tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyhalari tanlovlarida faol qatnashishlari hamda xo'jalik shartnomalar bo'yicha ishlar olib borilishi, shuningdek, Respublika va Xalqaro ilmiy, o'quv - uslubiy konferensiyalar va fan olimpiadalarini o'tkazilishini ta'minlansin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova,, Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani A.A.Xamrayev, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.10.Akademiyaning barcha fakultet kafedralari professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi bo'yicha reja tuzilishi va bajarilishining monitoringini olib borilishi, shu jumladan zamonaviy talablarga muvofiq ilmiy izlanishlar hamda o'quv jarayonini olib borilishi, xorijiy Oliy ta'lim muassasalari va markazlari professor-o'qituvchilari bilan tajriba almashinuvini amalga oshirilishi maqsadida kafedralar tomonidan har bir semestr davomida xalqaro o'quv – ilmiy konferensiyalar tashkillashtirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.11.Akademiyaning barcha kafedralarida, jumladan bakalavriat talabalarini xorijiy tillarni o'rganishga yo'naltirilishi, milliy va xorijiy sertifikatga ega bo'lishi, keyinchalik magistratura yo'nalishlariga kirishi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

1.12.Barcha fakultet kafedralarida HEMIS tizimini bo'yicha to'liq faoliyat yuritilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Akademiyaning Simulyatsion markazi hisoboti" mavzusi bo'yicha Klinik modellashtirish kafedراسi mudiri Parpiboeva Dinara Ayupovnaning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1.Simulyatsion markazining faoliyati tasdiqlangan reja hamda mahsus hujjatlarga asoslangan moddiy javobgarlik negizida olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Bosh buxgalter B.I.Alijonova, Klinik modellashtirish kafedراسi mudiri D.A.Parpiboeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2.2.Simulyatsion markazda faoliyat yurituvchi professor o'qituvchilar mahsus tayyorgarlik ko'rishlari va malaka oshirishlari ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Klinik modellashtirish kafedراسi mudiri D.A.Parpiboeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2.3.Simulyatsion markazdagi barcha simulyator-trenajyorlarning faoliyati bo'yicha, ularni ta'mirlanishi va metrologik ta'minlanishi yagona texnik xizmat ko'rsatilishi tizimi asosida olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, Klinik modellashtirish kafedراسi mudiri D.A.Parpiboeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2.4. Simulyatsion markazning barcha moliya harajatlari, shu jumladan simulyator-trenajyorlarni ta'mirlanishi, ehtiyot qismlari va aksessuarlari uchun moliyaviy resurslar reja bo'yicha olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov, Klinik modellashtirish kafedrasini mudiri D.A.Parpiboeva.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2.5. Klinik modellashtirish kafedrasining va birlashtirilgan o'quv moduliga muvofiq faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarning tajribasini oshirish maqsadida nufuzli chet el markazlarida malaka oshirishlari yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Klinik modellashtirish kafedrasini mudiri D.A.Parpiboeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

2.6. Simulyatsion markazda bakalavriat va magistratura talabalarning tashriflari tasdiqlangan reja asosida olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Klinik modellashtirish kafedrasini mudiri D.A.Parpiboeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2023-2024 o'quv yili davomida.

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova kafedra mudiri lavozimlariga: 1-son fakultet va hospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrasini mudiri lavozimiga talabgor D.A.Nabieva, bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri lavozimiga talabgor M.X.Mirraximova hamda dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha dotsent D.T. Abdullayeva, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha dotsent U.A.SHamsieva, 14.00.07 – Gigiyena ixtisosligi bo'yicha dotsent D.G.Abdullayeva, 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha dotsent F.SH.Mamatmusayeva nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.D.Israilov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipovlar so'zga chiqdilar.

5.1.Talabalar turar joyida yashaganlik uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishda Akademiyaning quyidagi toifadagi talabalariga ular to'g'risidagi ma'lumotlar fakultet dekani tomonidan buxgalteriya bo'limiga taqdim etilgandan so'ng imtiyozlar berilishi ta'minlansin:

chin yetim, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bo'lgan talabalarni to'lovdan ozod etilsin;

ota-onalaridan biri vafot etgan talabalar, umumiy kasalliklar bo'yicha 2-guruh nogironlari bo'lgan talabalar, shuningdek, o'z vazifasini namunali bajarib kelayotgan Kengash raisi, qavat sardorlari hamda turar joyi kutubxonasi uchun mas'ul talabalar uchun umumiy to'lovdan 50 foiz chegirilsin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dusmurodov, fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, S.U.Aliyev, Talabalar turar joyi direksiyasi direktori S.O'Ruzmetov, Talabalar turar joyi iqtisodchi buxgalteri O'M.Bo'riev.

Muddat: 2024-yil fevral.

5.2.Akademiyaning akademik reytingi (reputatsiya) bo'yicha global so'rovda ishtirok etish uchun barcha kafedralar tomonidan xorijiy universitetlar, xorijiy va milliy tibbiy markaz va klinikalar, sog'liqni saqlash muassasa yoki tibbiyot kompaniyalardan mutaxassislarning ishtiroklarini ta'minlab berishlari ta'kidlab o'tilsin (har bir kafedradan kamida 10 nafar mutaxassislarning roziligi olinsin).

Mas'ul: Barcha kafedra mudirlari.

Muddat: 2024- yil fevral.

5.3.Belarus Respublikasining Gomel davlat tibbiyot universiteti bilan qo'shma ta'lim va talabalar almashinuvi dasturlarini amalga oshirish bo'yicha topshiriq ijrosi

yuzasidan, hamda o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, Gomel davlat tibbiyot universiteti rektori Stoma Igor Olegovichga Akademiyaning “**Fahriy Professori**” unvoni berilsin.

5.4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 06-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qaroriga binoan xorijiy fuqarolarni davlat oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishni yilda ikki marta semestrning boshida tashkil etish belgilanganligi, Rahbariyat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi OTMlari uchun 2024-yilda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish topshirig‘i ijrosi yuzasidan bahorgi semester uchun chet-el fuqarolarini o‘qishga qabul qilish ishlari keng amalga oshirilsin va 5-martgacha yakunlansin.

5.5.Akademiyaning xalqaro hamda mahalliy reytingdagi o‘rnini yaxshilashga hissa qo‘shgan boshqaruv, professor-o‘qituvchi, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarini 2024-yil bo‘yicha (KPI) qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirish mezonlari tasdiqlansin.

Mas‘ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori S.I.Dustmurodov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.G‘oipov.

Muddat: doimiy.

5.6.Akademiyaning barcha bo‘lim rahbarlarining «Ijro.gov.uz» tizimidagi topshiriqlar ijrosi tahlili va KPI samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha platforma (elektron ko‘rinishda) 2024-yil 1-fevralga qadar yaratilishi (ekranda) inobatga olinsin.

5.7.O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasining topshirig‘iga muvofiq (2022-yil 4 noyabr 02-RA 1/1-1672-son) 2023-yil yakuniga qadar hamda 2023-2024-yil bo‘yicha Akademiyaga qabul qilinadigan ta‘limdan keyingi ta‘lim (doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar) uchun til bilish sertifikatini (B2) taqdim qilinishi inobatga olinsin.

5.8.2023-yil yakuni bo‘yicha yuklamalarni bajarish holatida salbiy deb topilgan (0 ball to‘plagan hamda ilmiy darajaga ega 9 ball va undan kam ball to‘plagan) kafedra professor-o‘qituvchilarni kamchiliklarini bartaraf etishda ogohlantirish hamda belgilangan muddat ichida o‘quv hamda ilmiy mahsulotlarida kamchiliklarini bartaraf etmagan professor-o‘qituvchilarga 2023-yil yakuni bo‘yicha xayfsan berilsin, professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejasi bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda kollegial organda ko‘rib chiqilganidan so‘ng o‘rnatilgan tartibda xayfsan olib tashlanishi inobatga olinsin.

Mas‘ul: Barcha kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil 20- fevral.

5.9. **“Interaktiv anatomik stol “Pirogov“ning o‘zbekcha versiyasi“** startap loyihasi yakunlanish sanasi 2023-yil 31- dekabr deb belgilangan, “uzinfocom” davlat axborotlari tizimlarini yaratish va qo‘llab quvvatlash bo‘yicha yagona integrator tomonidan anatomik stolni programmasini yuklashda qator chalkashliklar yuzaga kelayotganligi sababli loyiha ijro muddatini 2024-yil may oyiga qadar o‘zaytirib berish bo‘yicha xati inobatga olinsin.

Muddat: 2024-yil 31-may.

5.10. Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrası mustaqil izlanuvchisi dotsent D.K.Rasulova, Mehnat kodeksining 387-modda asosida fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun 2024-yil 01-fevraldan dan 2024-yil 30-iyungacha 14.00.13. “Nevrologiya” ixtisosligi bo‘yicha ”Insultli bemorlar reabilitatsion potensialini hisobga olgan holda insult yakunini bashoratlash va yangi neyroreabilitatsion dasturlar yaratish” nomli dissertatsiya ishini yakunlash maqsadida ijodiy ta’til berilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 535355
Sana: 16.02.2024